V. TRANSPORT

Yuk tashish. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 236,0 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 130,5 foizni tashkil etdi.

Yuk aylanmasi barcha transport turlari tomonidan 2471,0 mln.tn-km. bo‘lib, 122,1 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi:

Transport turlari bo‘yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi

	2021- yil yanvar-dekabr	*2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan, foiz hisobida*
Tashilgan yuk, mln. tn	236,0	130,5
shu jumladan:		
avtomobil transportida	236,0	130,5
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	2471,0	122,1
shu jumladan:		
avtomobil transportida	2471,0	122,1

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportining yuk aylanmasi 2020-yil yanvar–dekabrga nisbatan 8,3 foizga kamaydi va 256,5 mln. tn-km.ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 22,1 foizni tashkil etdi (2020- yil yanvar– dekabrda 8,2 foiz).

Yo‘lovchi tashish. 2021-yil yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 1132,4 mln.kishi tashilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 12,4 foizga ko‘paygan. Yo‘lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 15,6 foizga oshib, 11228,8 mln. yo‘lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo‘yicha yo‘lovchi tashish va yo‘lovchi aylanmasi quyidagicha ifodalanadi

	2021- yil yanvar- dekabr	*2020- yil yanvar- dekabrga nisbatan, foiz hisobida*
Transportda tashilgan yo‘lovchilar, mln. kishi	1234,1	84,0
shu jumladan, avtomobil transportida	1132,4	112,4
Yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km	13970,6	69,7
shu jumladan, avtomobil transportida	11228,8	115,6

Xususiy yo‘lovchi tashuvchilar avtomobil transportida yo‘lovchi aylanmasi 2020 -yil yanvar-dekabrga nisbatan 15,6 foizga ko‘paydi va 11228,8 mln.yo‘lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo‘lovchi tashuvchilarning ulushi 69,7 foizni tashkil etdi (2020 -yil yanvar-dekabrda 80,3 foiz).